

Mamajonova Mashhura Murodullayevna,

NamDU mustaqil izlanuvchisi

samsungasamsunga781@gmail.com

O‘ZBEK TILI LUG‘AT TARKIBIDA JUFT VA TAKRORIY SO‘ZLARNING O‘RNI HAMDA AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tiliga xos bo‘lgan juft va takroriy so‘zalar, ularning o‘rganilishi, tishunoslarning juft va takroriy so‘zlar haqida fikr va muloxazalari, ilmiy yondashuvlari, juft va takroriy so‘zlarning tildagi o‘rni hamda ahamiyati, so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra boshqa turlaridan farqi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Juft va takroriy so‘zlar misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: juft so‘z, takroriy so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, juft birikma, reduplikatsiya, yasalish

Мамажоновна Машхура Муродуллаевна,

исследователь НамГУ

samsungasamsunga781@gmail.com

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ПАРНО-ПОВТОРНЫХ СЛОВ В СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматриваются парные и повторные слова, характерные для узбекского языка, их изучение, мнения и наблюдения ученых о парных и повторных словах, научные подходы, роль и значение парных и повторных слов в языке, их отличие от других типов слов по структуре и их специфические особенности. Парные и повторные слова анализируются на примерах.

Ключевые слова: парное слово, повторное слово, сложное слово, словосочетание, парное сочетание, редупликация, конструкция

Mamajonova Mashhura Murodullayevna,

NamDU independent researcher

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF DUPLICATE AND REPEATED WORDS IN THE UZBEKISTAN DICTIONARY

Annotation. The article discusses the dual and repeated words characteristic of the Uzbek language, their study, the opinions and observations of scholars about dual and repeated words, scientific approaches, the role and significance of dual and repeated words in the language, their difference from other types of words according to their structure, and their specific features. Dual and repeated words are analyzed based on examples.

Keywords: dual word, repeated word, compound word, word combination, dual combination, reduplication, construction.

Kirish

O'zbek tilida so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlaridan biri juft so'zlardir. Ilmiy adabiyotlarda juft so'zlarga nisbatan turli terminlar qo'llanib kelinmoqda. Rus tilshunosligiga xos manbalarda juft so'zlarga „*парные слова*“, „*парные словосочетания*“, „*парные сочетания*“ kabi terminlar qo'llangan.[1] O'zbek tilida yozilgan adabiyotlarda esa faqat „juft so'z“ terminini kuzatamiz. „*словосочитание*“ terminining o'zbekcha tarjimasi so'z birikmasidir. So'z birikmasi deganda birdan ortiq mustaqil so'zning o'zaro grammatik aloqaga kirishuvidan hosil bo'lgan, o'zicha mustaqil fikr ifodalay olmaydigan til birligi tushuniladi. So'z birikmasini hosil qiluvchi elementlar (so'zlar) o'zaro tobe va hokim munosabatda bo'ladi. Masalan, *qizil olma* so'z birikmasida *olma* so'zi hokim, *qizil* so'zi tobedir. Juft so'zning qismlari esa o'zaro hokim va tobe munosabatida emas, balki tenglik muposabatida bo'ladi. Ikkinchidan, „*парные словосочитания*“ terminini o'zbekcha muqobili „*juft birikmalar*“ demakdir. Bundan ikki so'zning juftlashishi emas, balki ikki so'z birikmasining juftlashishi tushuniladi. Demak, *eson-omon*, *qovun-tarvuz*, *katta-kichik* kabi juft so'zlarga nisbatan „*парные словосочитания*“ terminini qo'llash to'g'ri emas.

Adabiyotlar tahlili

R.A.Aganinning ko'rsatishicha, *ota-ona, yaxshi-yomon, baland-past* kabi juft so'zlar xususiyatiga ko'ra sodda so'zlardan farqlangani sababli ularga nisbatan „*парные слова*“ (juft so'zlar) terminini qo'llash muvofiq emas. U juft so'zlarga nisbatan „*парные сочетания*“ terminini qo'llashni ma'qul ko'radi.[2] Haqiqatda ham bunday hodisalarga nisbatan „*парные словосочетания*“ terminidan ko'ra „*парные сочитания*“ terminini qo'llash to'g'ri, lekin bu terminning o'zbekcha tarjimasi shu hodisalarga nisbatan unchalik muvofiq kelmaydi, ya'ni *aql-hush, dasht-biyobon, asta-sekin* kabilarga nisbatan „juft birikma“ yoki „juft bog'lanish“ kabi terminlarni qo'llashni muvofiq ko'rmasdik. Ikkinchidan, bunday hodisalarga nisbatan „juft so'z“ terminini qo'llash, bizningcha, muvofiq sanaladi: Bunda („juft so'z“ termini ostida) ikki so'zdan yasalgan bir so'z emas, balki ikki so'zning o'zaro teng bog'lanishidan hosil bo'lgan birikma nazarda tutiladi.

Takroriy so'zlarni A.N.Kononov, N.A.Baskakov, N.P.Direnkova, A.Kaydarov, S.K.Kenesbayev, R.Opayeva so'z yasash usuli deb qaraydi. S.Fuzailov, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, N.R. Abdurahmonov kabi bir qator o'zbek tilshunoslari bu fikrga qo'shiladi. A.G'.G'ulomov bir o'rinda: „*bir ot takrorlanib yangi ot tug'diradi*“, – desa, boshqa bir o'rinda – „*ot yoki undov takrorlanib, ravish yasaydi*“, – deydi. Yana bir o'rinda: „*sintaktik usul bilan so'z yasashning eng eski ko'rinishi reduplikatsiyadir*“, – deb yozadi.[3]

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani yoritishva tahlillar jarayonida qiyosiy-tarixiy, statistik metodardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Turkologik adabiyotlarda, shuningdek, o'zbek tiliga oid manbalarda juft so'z yasalishi so'z yasashning bir usuli sifatida qoraladi, ya'ni juft so'z yasash orqali yangi so'z hosil qilinadi deb qoraladi. Juft so'zlar sintaktik usul (kompozitsion usul) bilan so'z yasashning bir turi deb ko'rsatiladi. Lekin o'zbek tili faktlari haqiqiy holatning birmuncha boshqacha ekanligini ko'rsatadi. Juft so'zlarda haqiqiy ma'nodagi so'z yasalishi (yangi so'z hosil bo'lishi) ko'rinmaydi, ya'ni ikki so'zni o'zaro juftlash (bog'lash) orqali yangi so'z hosil qilish hodisasi hozirgi

o'zbek tilida yo'q. Juft so'zlarda uning qismlari ko'pincha o'z ma'nosini saqlaydi. Masalan, *hol-ahvol*, *baxt-saodat*, *opa-singil*, *qozon-tovoq*, *aql-hush*, *katta-kichik*, *baland-past*, *oyoq-qo'l* kabilarda ikki so'zning juftlashishidan uchinchi bir so'z hosil bo'lgani yo'q, To'g'ri, ba'zi juft so'zlar qismlari ma'nosidan farqlanuvchi yangi ma'no ifodalaydi. Masalan, *rang barang*, *dam badam* kabi. Lekin bularda qismlararo ma'nosidan farqlanuvchi yangi ma'noning ifodalapishp juft so'z yasash bilan bog'liq emas. Bular juft so'z sifatida qo'llana boshlaganda, uning qismlari o'z ma'nosini saqlagan holda qatnashgan. Keyinchalik til taraqqiyoti jarayonida uning qismlari bir ma'no markaziga birlasha borib, yangi ma'no ifodalay boshlagan. Demak, *rang-barang*, *damba-dam* kabilarning juft so'z sifatida birinchi bosqich deb qaralsa, til taraqqiyoti jarayonida ikkala qismning bir ma'no (yangi ma'no) ifodalay boshlashi keyingi bosqich deb qaralishi kerak.

Juft so'z hosil bo'lishini so'z yasash hodisasi bilan aralashtirib bo'lmasligini yana shunda ham ochiq ko'rish mumkinki, ko'pgina juft so'zlar uyushiq holda ham qo'llanadi. Masalan, *katta-kishk* formasi bilan *katta* va *kichik* formasining parallel qo'llanishi ko'p uchraydi. Lekin ikkala formada ham bir xil ma'no ifodalanadi. Yaxshi va yomon formasini yaxshi-yomon formasida qo'llash bilan yangi ma'noli so'z hosil bo'lmaydi.

O'z-o'zidan shunchay savol tug'ilishi mumkin: juft so'zlar so'z birikmasi hisoblanmasa, bularda ikki so'zning bog'lanishidan yangi so'z hosil bo'lmasa, u holda juft so'zlarning tilda mavjudligini nima bilan izohlash mumkin va ahamiyati nimadan iborat?

Juft so'z yasalihi so'z yasash hodisasi bo'la olmasligidan qat'iy nazar ular tilda ortiqcha hodisa emas. O'zbek tilida juft so'zlarning mavjudligi shu tilning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri hisoblanadi. Chunki biror tilning taraqqiyot darajasi shu tilning lug'at tarkibining qanchalik boyligi, unda so'z yasovchi vositalarning qanchalik ko'pligi bilangina belgilanmaydi, balki fikr almashuvda turli ma'no va ottenkalarini, stilistik ottenkalarni to'la va ochiq ifodalaydigan vositalarga qapchalik boyligi bilan ham belgilanadi. Bunday vositalar turmushda fikr almashuvda bo'lgan talablar natijasida paydo bo'ladi.

Lekin bunday vositalar barcha tillarda bir xil emas, ular turli tillarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbek tilidagi juft so'zlar ana shunday talab natijasida paydo bo'lgan va shu tilning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi hodisalardan biri hisoblanadi. O'zbek tili taraqqiyoti davomida juft so'zlarning tobora ko'payib borayotganligi ham buning yaqqol dalilidir. O'zbek tilida juft so'zlar jamlik, umumlashtirish kabi ma'nolardan tashqari, fikr almashuvda eng nozik ma'no ottenkalarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

O'zbek tiliga va boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarning ko'pchiligida takroriy so'zlar keng ma'noda juft so'zlar qatoriga kiritiladi. Bunda juft so'z bilan takroriy so'zning ikki qismidan (ikki so'zdan) tashkil topishi nazarda tutiladi. Lekin juft so'zlar bilan takroriy so'zlar o'zlariga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bularning o'zaro farqli belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Juft so'z hamma vaqt boshqa-boshqa so'zdan tashkil topadi: *aql-hush*, *yozin-qishin* kabi. Takroriy so'z ayni bir so'zning takroridan hosil bo'ladi: *baland-baland*, *qumoq-qumoq* kabi.

2. Juft so'zning bir, hatto, ikkala qismi hozirgi o'zbek tilida mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'lishi mumkin: *amal-taqal*, *ikir-chikir* kabi. Takroriy so'zning ikkala qismi ham mustaqil ma'noli bo'ladi.

3. Juft so'zlar, asosan, umumlashtirish, jamlik ma'nolarini va turli ma'no ottenkalarini ifodalaydi. Takroriy so'zlar ko'plik, davomiylik, takror kabi ma'nolarni ifodalaydi. Takroriy so'zlar barcha mustaqil so'z turkumlarida va taqlidiy so'zlarda uchraydi.

N.K.Dmitriyev esa "Qumiq tilida stilistik vosita bo'lgan takrorlash grammatik maqsadlarda qo'llanadi", – deb yozadi.[4] M.I.Odilovning yozishicha, "ozarbayjon tilida takrorlar ham so'z yasash, ham shakl yasash funksiyasiga ega". "Takrorlash yo'li bilan so'z yasash va turli grammatik ma'nolarni ifodalash turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida ko'p uchraydi", deydi O.Azizov. A.Hojiyev o'zbek tilida takroriy so'zning yasaliishi so'z yasash hodisasi bo'la olmasligini aytadi.

N.Abdurahmonov: “Takroriy soʻzlar aslida tilda yoʻq. Ular tilning lugʻat tarkibiga kirmaydi, shuning uchun ham lugʻatlarda koʻrsatilmaydi. Takror soʻzlar faqat suhbat jarayonida suhbatdoshlarning irodasi asosida , improvizatsiya asosida hosil qilinadi va suhbatdan keyin yana yoʻq boʻlib ketadi”, – deydi. A.Hojiyev ularni haqli ravishda shakl yasalishi deb qaraydi.[5]

Demak, baʼzi tilshunoslar soʻzlarning takrorlanishini yangi leksik-gramatik kategoriyaning yasalishiga olib keladi degan fikrda boʻlsa, ayrimlari ularni ham soʻz yasash, ham shakl yasash xususiyatiga ega deyilar; boshqalari esa ularni til fakti deb emas, nutq fakti deb hisoblaydi.

Takroriy soʻzlarda ayni bir soʻzning takror holda qoʻllanishi natijasida maʼlum maʼnolar (shu soʻzning leksik maʼnosidan yana boshqa maʼnolar) ifodalanadi. Shunga koʻra biror maʼnoni ifodalash uchun qoʻllangan bunday takroriy soʻzlar leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi.

Reduplikatsiya – soʻz takrori oʻzbek tilida ikki xil xarakterga ega: soʻz yasash vositasi va gramatik vosita. U koʻpincha grammatik funksiyani bajaradi: predmetning koʻpligi, belgining oshirilishi, maʼnoning kuchayishi, harakatning takrorlanishi va uzoq davom etishi va boshqalar. Masalan: *kim-kim keldi?*- *Kimlar keldi?* Koʻplik birinchi holda soʻz takrori orqali , ikkinchi holda esa affiks orqali ifodalangan. Bu holat (takror yoki affiks qoʻllash) turli tomonlari bilan ajraladi. Baʼzan bir ikkinchisining oʻrnida qoʻllana oladi (lekin stilistik jihatdan farqlanadi: birinchisi jonli soʻzlashuv holatiga mos keladi), baʼzan har ikkalasi bir momentda, bir konstruksiyada qoʻllanadi (kuchaytiruv umuman, bir maʼnoning ikki vosita bilan qaytadan ikki marta ifodalanishi, ekspressiya, kuchaytirish, oshirish, funktsiyasini bajaradi), baʼzan ularni almashtirib boʻlmaydi.

Xulosa

Demak, takroriy soʻz deganda har qanday soʻzning oddiy takrori emas, balki bir soʻzning takror holda qoʻllanishi bilan shu soʻzning leksik maʼnosidan tashqari maʼlum grammatik maʼnolar (koʻplik, davomiylik kabi maʼnolar) ifodalovchi *baland-baland* (imorat), *chopa-chopa* (charchamoq) kabi leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi takrorlar tushuniladi. Juft va takroriy

soʻzlarni badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga oʻquvchilarning diqqatini tortish, uni boʻrttirib koʻrsatish, badiiy-stilistik vosita sifatida foydalanadilar. Ular asar tilini ohangdor, taʼsirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Juft va takroriy soʻzlarning barcha turlari va koʻrinishlari oʻz ifoda shakliga va tasvir usuliga ega boʻladi. Badiiy matnda leksik birliklar turli shakllarda namoyon boʻladi va fikr talabiga koʻra hilma-xil vazifalarni ado etadi. Ular badiiy tasvirning muhim vositasi sifatida asarlarning turli janrlarida oʻziga xos sheʼriy sanʼatlar va stilistik figuralarga asos boʻladi, ammo bunday soʻzlarning badiiy matnda qoʻllanish darajasi, badiiylilikni ifodalash imkoniyatlari turli tuman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Убрятова Е. И. Парные слова в якутском языке // Язык и мышление,“ т. XI, 1948. – С. 297- 328. Дмитриев Н. К. Парные словосочетания в башкирском языке, Известия АН СССР, отд. гуманитарных наук, № 7, 1930.
2. Аганин Р. А. Повторы и однородные парные сочетания в современном турецком языке. – М., 1959.
3. Кайдаров А. Парные слова в современном уйгурском языке. – Алма-Ата, 1959.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент. 1992. – Б.8.
5. Абдурахмонов Н. Ҳозирги замон ўзбек тилида жуфт сўзлар состави масаласи. Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг асарлари. – Самарқанд, 1963. – Б. 50.
6. Ғуломов А. Ғ. Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари ҳақида, А.С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари, 1-китоб. – Тошкент, 1949, Б. 37-81.
7. Дмитриев Н.К. Грамматика кумыкского языка. – М., 1940. – С. 46 -48.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1963